



"DEVONU LUG'ATI-T-TURK"DA ETNOGRAFIZMLAR AKSI

TerDU talabasi: Boymurodova Lobar Raxim qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida uchraydigan etnografizmlar tahlil qilinadi. Ushbu leksik birliklar turkiy xalqlarning madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi va ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Maqoladagi etnografizmlar aynan shu tarzda tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'ati-t-turk", etnografizm, madaniyat, urf-odat, turkiylar.

Leksik sathimizda shunday so'zlar borki, ular xalqimizga xos bo'lgan milliy madaniyatni, o'ziga xos mentalitetni aks ettiradi. Ushbu so'zlarda ifodalanayotgan lug'aviy ma'nodan tashqari biror xalqqa tegishli bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, an'ana va qadriyatlar ham ifodalanadi. Bunday xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarni biz ilmiy atamalar doirasida "etnografizmlar" deb ataymiz. Bu so'zning o'zagi xalqlarning kelib chiqishi, paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ilk jarayonlarni o'rganuvchi soha atamasi, ya'ni "etnografiya" so'zidir. Demakki, etnografizmlar ushbu soha bilan uzviy aloqadorlikda va biri ikkinchisini to'ldirgan holatda o'rganiladi. Shu xususda, Mahmud Koshg'ariy tomonidan XI asrda yozilgan "Devonu lug'ati-t-turk" asari nafaqat turkiy tillarning qadimiy lug'ati, balki o'sha davr turkiy xalqlarining hayot tarixi, urf-odatlar va madaniyati haqida muhim ma'lumot beruvchi asardir. Ushbu asardagi etnografizmlar xalqlarning kiyimi, taomi, yashash tarzi, urf-odatlar va ijtimoiy tuzilishini tushunishda bebaho manba hisoblanadi.



Asarda uchraydigan etnografizmlarni tahlil qilish asnosida uning tematikasini aniqlash mumkin:

1. chorvachilikka oid etnografizmlar;
2. dehqonchilik bilan bogʻliq etnografizmlar;
3. milliy xalq oʻyinlari bilan bogʻliq etnografizmlar;
4. toʻy va unga bogʻliq etnografizmlar;
5. turli xil marosimlar bilan bogʻliq etnografizmlar;
6. milliy taomlar bilan bogʻliq etnografizmlar;
7. xalq hayoti bilan bogʻliq etnografizmlar;
8. milliy kiyim va taqinchoq nomini ifodalovchi etnografizmlar;
9. ijtimoiy madaniyatga doir etnomadaniy leksik birliklar;
10. qarindosh-urugʻchilikni ifodalovchi etnografizmlar.

"Devonu lugʻati-t-turk" asarida etnografiyaga oid ilmiy izlanish qilgan olimlar taʼkidlaganidek, 200 dan ortiq etnografik birliklar uchraydi.

"Devonu lugʻati-t-turk" asarida turli marosimlar, masalan, toʻy, bayramlarga oid etnografizmlar alohida oʻrganishni taqozo etadi. Masalan, — **sawči** - sovchi "Kuyov bilan kelin tomon orasida xat bilan yuruvchi elchi". Turkiy xalqlarda sovchilik anʼanasining uzoq tarixga ega ekani aynan shu asar orqali tasdiqlanadi. "Sawči" atamasi turkiy tillarning "saw" yoki "sow" ildizidan kelib chiqqanligini aytish mumkin. Bu ildiz qadimgi turkiy tilda "gaplashmoq, maslahatlashmoq" maʼnolarini anglatgan. Bugungi kunda ham **sovchi** soʻzi turkiy tillarda saqlanib qolgan va maʼnosi deyarli oʻzgarmagan. Masalan,

Oʻzbek tilida— sovchi;



Qirg'iz tilida— (talapker) sovçi;

Qozoq tilida— sovchï;

Turk tilida— (talip) sovçi;

Turkman tilida— sowci.

—**yöwüs** - qarindoshlarga mol va kiyim bilan ko'maklashish marosimi. Bu holat ko'pincha bayramlarda kuzatilgan bo'lib, bugungi kunda ham turkiy xalqlar orasida kuzatiladigan urf-odat hisoblanadi.

— **čillik** - bir turli bolalar o'yini. Bitta uzun, bitta kalta yog'och bilan o'ynaladigan bolalar o'yini va shu o'yinda xizmat qiladigan ingichka yog'och. Bu o'yin ham juda qadimiy sanaladi.

—**ebak-non**. Bu atama ko'proq bolalar tilida aytilgan va "nanna" shaklida ham talaffuz qilingan.

—**sep**- kelinlar sepi, moli;

—**ton**- to'n, ermaklar kiyimi, choponi;

—**yowğan oş**- yovg'on osh. Bu qadimiy ovqat turi hisoblangan.

—**sīm-sīmraq**- qadimiy ovqat turi. Kalla qaynatilib pishirilgach, mayda qilib to'g'raladi, so'ng dorivorlar bilan birga idishga solinadi va ustiga achigan qatiq solinib, u singigach, yeyiladi. Bu ovqat turi bugungi kunda ham bir qancha, qishloqlarda haligacha pishiriladi.

—**yoğ** - ma'raka oshi. O'likni ko'mib qaytganlar uchun beriladigan ovqatning oti. Uch yoki yetti kungacha davom etadi.

—**üzlög aš** - yog'li osh. Osh bugungi kunda hamma joyda tayyorlanadi. Bu o'zbeklarning milliy taomi hisoblanadi.



—**a:š**- ovqat, osh;

—**awzuri** - yorma. Bug‘doy, arpa uni aralashtirilib qilinadi. Bu ovqat bugungi kunda darveshonalarda, ko‘cha oshlarida qilinadi.

O‘yin turlariga oid etnografizmlar:

—**büdik** - o‘yin, raqs;

—**qoburčuq**- qog‘irchoq. Qiz bolaning odamga o‘xshatib yasalgan o‘yinchoqlari;

—**čögän** - chavgon o‘yini.

Qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi etnografizmlar ham talaygina bo‘lib, bularga quyidagilar kiradi:

—**yeznä** - yazna, katta qiz qarindoshlarning eri;

—**uğus**- qarindosh;

—**qabīn-qabnağun** - kuyov va kuyovlarning qarindoshlariga aytiladi.

To‘y va unga oid etnografizmlarga misollar keltiradigan bo‘lsak, ular bugungi kunda ham qo‘llaniladi. Shuningdek, marosimlarga oid so‘zlar asarda ham keng qo‘llangan:

—**kelin**-kelin;

—**äritti** - xatna to‘ydagi marosimlar;

—**kebüt** - to‘yda kelin va kuyov yaqinlariga hurmat yuzasidan kiydiriladigan to‘n. Bu kiyim bugungi kunda milliy kiyim hisoblanadi.

-**didäk** - ro‘mol. Kelin ko‘chganda, yurganda o‘zgalardan yashirish uchun yopinadigan narsa;



—**boğmaq** - bo‘yin tumor. Oltin va boshqa narsalardan yasali b, qimmatbaho toshlar va marvaridlardan qadalgan qadimiy taqinchoq turi.

-**mandirī** - kelin bilan kuyov ishtirokida kechasi yig‘iladigan majlis, unda ularning ustidan pul sochadilar. (chigilcha)

—**qalīn** - qalin, sep.

Qalīn bersā, qīz alir, kerak bolsa, qīz alir. (Maqol)

Marosimlar bilan bog‘liq etnografizmlar:

—**yat** - xudodan so‘rab, maxsus toshlar (yada toshi) bilan yomg‘ir va shamollarni chaqirish marosimidir.

Etnografizmlarni monografik planda tadqiq etish ularni o‘rganishga qulay imkoniyat yaratadi. Turkiy xalqlardagi, xususan, o‘zbek xalqiga xos rasm-rusumlar bilan bog‘liq tushunchalarning turli urf-odatlar, marosimlar bilan bog‘liq tushunchalarni o‘rganish lozimdir. "Devonu lug‘ati-t-turk" asarida etnografizmlarning aks etishi turkiy xalqlarning madaniy merosi, turmush tarzi va urf-odatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Mahmud Koshg‘ariy ushbu asar orqali nafaqat til xazinasini, balki turkiy xalqning hayot tarzi, an‘naviy kiyim-kechaklari, taomlari, uy-joylari, urf-odatlari va ijtimoiy munosabatlarni ham hujjatlashtirgan. Asarda uchraydigan etnografizmlar turkiy xalqlarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini, ularning madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Devonu lug‘ati-t-turk" faqat lug‘at emas, balki qadimgi turkiy xalqlarning madaniy va tarixiy xotirasi sifatida baholanadi. U tilshunoslik va etnografiya fanlari uchun bebaho manba bo‘lib, turkiy xalqlarning o‘zligini anglash va madaniy merosini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. G'.G'ulom nashriyoti. Toshkent, 2017.
2. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. Toshkent, Cho'lpon, 2007.
3. Qahhorova M. O'zbek etnografizmlarining sistemaviy tadqiqi. -Toshkent, 2009.
4. ares.uz. internet sayti.